

Date: 17th March-2026

IJTIMOIIY BEGONALASHUV- ALOHIDA FENOMEN
СОЦИАЛЬНОЕ ОТЧУЖДЕНИЕ- ЭТО ОТДЕЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ
SOCIAL ALIENATION IS A SEPARATE PHENOMENON

Temirova Nilufar Erkinovna

Guliston davlat universiteti, dotsent, fajsafa fanlari nomzodi.

E-mail:; ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-6330-5901>

Temirova Nilufar Erkinovna

Темирова Нилуфар Эркиновна

Гулистанский государственный университет, доцент, кандидат философских наук

Annotatsiya. Ijtimoiy begonalashuv – jamiyatdagi ayrim guruhlar yoki shaxslarning chetlanishida yoki tan olinmasligida namoyon bo'ladigan fenomen yoki hodisadir. Ijtimoiy begonalashuv odamlar uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, bu ularning o'zini o'zi qadrlashi va jamiyatdagi imkoniyatlariga salbiy ta'sir qiladi. Maqolada ijtimoiy begonalashuvga ta'rif berilib, uning sabablari, oqibatlari va bartaraf qilish yo'llari tahlil qilinmoqda.

Abstract: Social exclusion is a phenomenon or occurrence that manifests itself in the exclusion or non-recognition of certain groups or individuals in society. Social exclusion can have serious consequences for people, affecting their self-esteem and opportunities in society. The article gives a definition of social exclusion, analyzes its causes, consequences and ways to overcome it.

Аннотация. Социальное отчуждение – феномен или явление, проявляющееся в исключении или непризнании определенных групп или индивидов в обществе. Социальное отчуждение может иметь серьезные последствия для людей, влияя на их самооценку и возможности в обществе. В статье даётся определение социального отчуждения, анализируются его причины, последствия и пути преодоления.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy begonalashuv, kamsitish, imkoniyatlarning cheklanganligi, begonalashuv sabablari, bartaraf etish, jamiyat, inson, shaxs, individ.

Keywords: social exclusion, discrimination, limitation of opportunities, reasons for exclusion, overcoming, society, person, personality, individual.

Ключевые слова: социальное отчуждение, дискриминация, ограничение возможностей, причины отчуждения, преодоление, общество, человек, личность, индивид.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyoda sodir bo'layotgan chuqur o'zgarishlar hayotimizning deyarli barcha jabhalarida - ta'lim tizimi, tarbiya, inson ijtimoiylashuvida – o'z aksini topdi. Bu o'zgarishlar yangi, umuminsoniy, global masalalarini yuzaga keltirdi. Bularga ekologiya, terrorchilik, yadroviy urush tahdidi, demografik inqirozni kiritish



Date: 17th March-2026



mumkin. Bular nafaqat ijtimoiy, balki shu bilan birga ekzistentsial muammolardir. Insonning begonalashuvi va begonalashuvni bartaraf etilishi jarayonlari sotsiogeneznining universal mexanizmlari hisoblanadi va tarixiy jarayonning davomida amal qiladi. Ayrim olimlarning fikricha, inqiroz zamonlarida begonalashuvning o'ziga xos madaniyati kerak bo'lib, u nafaqat kurashishga, balki shu bilan birga murosaga kelishni o'rganishga, ijobiy ta'sir beruvchi begonalashuv turlari bilan birga yashash san'atini egallashga, hamda jamiyat o'zining ma'lum bir taraqqiyot bosqichida bartaraf eta olmaydigan turlarini tan olishga imkon beradi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, begonalashuv ob'yektiv ijtimoiy jarayon bo'lib, ham inson faoliyati, ham uning mahsulotlarini uning ustidan hukmronlik qiladigan, mustaqil, dushman kuchga aylanishi bilan tavsiflanadi. Begonalashtirish ijtimoiy o'zaro munosabatlarning tegishli turi bilan yuzaga keladi, bunda odamlar o'rtasidagi munosabatlar narsalar o'rtasidagi munosabatlar bilan almashtiriladi. Buning muqarrar oqibati esa – ob'yektiv dunyoning (pul, hokimiyat, jamiyatdagi mavqei) fetishizatsiyasidir. Begonalashuv moddiylashtirilgan mehnatning jonli mehnatdan ustunligida, sub'yektning manipulyatsiya ob'yektiga aylanishida, ishlab chiqaruvchining mehnat natijalari ustidan nazorati yo'qligida namoyon bo'ladi. G.Vildanova va boshqalar begonalashuvning quyidagi shakllarini ajratadilar: 1) faoliyat begonalashuvi - mehnat jarayonida sub'yektning tushkunlikka tushishi va qashshoqlashuvi; 2) faoliyat natijalarini faoliyat sub'yektidan begonalashishi; 3) faoliyat shartlarini faoliyatdan begonalashishi - mehnat sub'yektiga mehnatning shart-sharoitlarini qarama-qarshi qo'yilishi; 4) nazariyaning amaliyotdan begonalashishi, jamiyat a'zolarining ongi va xulq-atvorida og'ishlarning kelib chiqishi; 5) ijtimoiy tuzilmalar va institutlarning mehnatkashlardan begonalashishi – davlat byurokratik mashinasining jamiyatning oddiy a'zolari bilan qarama-qarshiligi [4, b.15-16].

Ekzistensial-antropologik hodisa sifatida insonning sub'yektivligiga nisbatan begonalashuv befarqlik, yolg'izlik, loqaydlik, yuksak ijtimoiy va insonparvarlik qadriyatlarining atrofiyasi, voqelik hodisalarini shaxsga qarama-qarshi turuvchi va qarama-qarshilik ko'rsatuvchi hodisalar deb qabul qilishda namoyon bo'ladi. Inson o'zining begonalashgan tafakkurining quliga, narsalarning, boshqa odamlarning, sharoitlarning quliga aylanadi. Inson o'zini yo'qotadi, hayotga qiziqishini, tabiiyligini yo'qotadi. Bu muammoning ko'lam globaldir, lekin u immanent tarzda, ekzistensial ruhda, har bir insonning ongida individual ravishda hal qilinadi.

Biz ko'rib chiqayotgan ijtimoiy begonalashuv - bu shaxs yoki odamlar guruhining jamiyatda o'zini rad etilgan, ajratilgan, izolyatsiya qilingan yoki tan olinmagan deb his qilayotgan jarayondir. Bu holat shaxs yoki guruh ijtimoiy me'yorlarga, qadriyatlar yoki kutilgan ishonchlarga mos kelmasa, va bu hol ularni jamiyatning qolgan qismidan chetlanishi yoki ajralib ketishiga olib kelganda yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS)

“Abadiy” falsafiy muammolardan biri hisoblangan begonalashuv muammosi hech qachon o'z dolzarbligini va ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu muammoning dolzarbligi

Date: 17th March-2026

gnoseologik, ontologik, ijtimoiy-madaniy omillar tufayli yuksalib bormoqda. Begonalashuv muammosi qadimgi davrdan boshlab, antik davr, o'rta asrlar davri, yangi davr va eng yangi davr olimlari tomonidan falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik, madaniyatshunoslik jihatidan o'rganilib kelinmoqda.

So'nggi yillarda Ya.Yu.Lyaxova, Ye.O.Smoleva, V.Alimasov, G.B.Vil'danova va boshqalarning ishlarida begonalashuv fenomenining mohiyati falsafiy jihatdan ochib berilgan [9, 14, 2, 4]. L.I.Paxar o'zining "Begonalashuv: jamiyatning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari" [10] nomli maqolasida zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni begonalashuv jarayoni jihatidan tahlil qilgan. Begonalashuvni jamiyatdagi turli qatlamlar o'rtasidagi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarning uzilishi deb tushunib, bu jarayonni hozirgi sotsium hayotining turli sohalarida qarab chiqqan. D.V.Prokofyeva siyosiy va texnologik begonalashuvni o'rganib, uning barcha turlarini va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq qilish murakkab muammolardan hisoblanadi, deb ta'kidlaydi [12]. N.N.Isachenko zamonaviy jamiyatdagi begonalashuv muammosini tadqiq etib, jamiyatga komp'yuterlar va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy qilish begonalashuvning vujudga kelishini tezlashtiradi, deb ta'kidlaydi. Axborot-tarmoqli makonda insoniyligini yo'qotgan "noinsoniy" sub'yekt shakllanadi, u o'zining insoniylik tabiatini texnika ta'siri ostida yo'qotadi. Shuning uchun ilmiy-texnika ishlanmalariga inson tabiatini buzmaydigan insonparvarlik, ya'ni gumanistik tamoyiliga rioya qilish talablarini qo'yish zarur, deb yozadi [7]. Shuningdek, uning fikricha, begonalashuv jamiyatdagi destruktivlikning namoyon bo'lishining determinantasi sifatida vujudga keladi.

M.Safarova maqolasida begonalashuv tushunchasining mazmunini va doirasini belgilab olishga, turli nazariy maktablarning begonalashuv hodisasiga berilgan ta'riflari va tasniflari o'rganib chiqilgan. U begonalashuv mohiyatini ochib berarkan, "shaharlashuv (urbanizatsiya) natijasida insonlarning o'zaro munosabatlari, ular o'rtasidagi muloqot mustahkamlanib borishi kerak, lekin ijtimoiy hayotning differentsiatsiyalashuvi insonlarning tobora bir-biridan uzoqlashishiga va natijada ularning o'zaro begonalashuvi ortishiga olib kelmoqda. Buning sabablaridan biri, aholi turli qatlamlari o'rtasidagi iqtisodiy farovonlikning nomutanosibli bo'lib, uning oqibatida inson o'zi yashayotgan jamiyatdan ma'lum ma'noda begonalashadi va bu begonalashuv ma'naviy, iqtisodiy, moddiy, axloqiy, huquqiy, madaniy va mafkuraviy ko'rinishlarda yuz beradi", deb yozadi [13].

V.N.Darenskaya begonalashuvni sub'yekt-sub'yekt munosabatlari jihatidan va borliqning chekli va cheksiz (fenomenal va transsendental) darajalari nuqtai nazaridan qarab chiqishni taklif etadi. Tarixiy jarayonda begonalashuv dialektikasini belgilab beruvchi mezonlaridan biri individual va ommaviy ongning yaxlit shakli sifatida inson hayotining ma'nosi bo'lib, u qisman begonalashgan shakllarni bartaraf etib, inson borlig'ining yaxlitligini qaytaradi [5]. O.I.Klyuyenkov begonalashuv muammosini Hegel, Marks va Xaydegger tomonidan ochib berilishini tadqiq qilgan [8]. V.V.Drozdov begonalashuv tuzilmasi va mexanizmini falsafiy jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, D.N.Prixodko uni bartaraf etish yo'llarini aniqlashga harakat qilgan [6, 11].



Date: 17th March-2026**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Sotsiologiya darsligida “begonalashuv – odamlar, ijtimoiy guruhlarining bir-biri bilan yonma-yon yashashlariga qaramay, ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon”, deb ta’rif berilgan [15, b.121]. NamDU saytidagi “Begonalashuv va xudbinlikni qanday yengamiz?” nomli maqolada quyidagicha ta’rif keltirilgan: “Begonalashuv – o’zgalashuv, tanimaslik, bilmaslik, tushunmaslik ma’nosini anglatib, shaxsning fe’l-atvorida milliy qadriyat, ma’naviyat va madaniyatimiz, o’z yaqinlarimizdan yiroqlashishni bildiradi. Buning oqibati esa xudbinlik borqo’liga botish xavfini yuzaga keltiradi. Begonalashuv – insonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o’z manfaati doirasida qulaylashtirishga intilish, o’zgalar manfaati, xohish-irodasini tan olmaslik, hamma narsani o’zining qolipi bilan o’lchash demak [3].

Taniqli faylasuf olim V.Alimasov: “Jamiyatdan begonalashuv – alohida fenomen. U avvalo inson ruhiyati, sensitiv, ayniqsa, pessimistik kechinmalari, borliqni anglash jarayonida orttirgan gnoseologik tajribalari bilan bog’liq. Shu sababli u – individual hodisa. Individ – begonalashuvning ham sub’yekti, ham ob’yekti. Begonalashuvning fojiaga aylanishi boisi – inson. U o’zini jamiyatga, yon-atrofga qarshi qo’yadi va hayotini dramaga aylantiradi. Shu sabab ham begonalashuvga da’voni individning o’zidan, uning ma’naviy-ruhiy olamidan qidirish zarur”, - deb ta’kidlaydi [2, b.29]. M. Safarovaning fikricha, ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, inson faoliyati natijalari inson uchun shunchalik begona bo’ladi. Begonalashuv – umumiy xarakterga ega bo’lgan va uni hal etishga har tomonlama yondashishni talab qiladigan tizimli jarayon [13, b.957].

Jamiyat hayotida bir toifadagi kishilar o’z xatti-harakatlari bilan yaqqol ajralib turishadi. U toifadagi kishilarda o’zga insonlar bilan munosabatda bo’lishda ma’lum bir chegarolovchi jihatlari yuzaga chiqmoqda. Marginal turmush tarzi kishini bir qobiqqa o’ralashtirib, jamiyatdan uzoqlashib, o’zaro munosabatlarda uzulish ro’y beradi, o’zini jamoa orasida noqulay seza boshlaydi. Bu jarayon muttasil davom etishida ta’sirga uchrash oqibatida jamiyat qabul qilgan qadriyatlardan voz kechilishi va undan begonalashadi. Paydo bo’lgan bo’shliq to’ldirilishi zarur yangi ko’rinishdagi muloqot manbalarini topadi. Bunga misol qilib “ommaviy madaniyat”ni olishimiz mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning axborot bazasi ushbu “madaniyat” bilan to’yingan. Biz internet va ijtimoiy tarmoqlarni faqat qoralash niyatida emasmiz. Albatta uning ijobiy jihatlari ham bisyor. Misol tariqasida sizga biror sohadagi xohlagan ma’lumotni topish uchun o’rningizdan turish ham kerak emas, yoki dunyoning qaysi nuqtasida qanday ob-havo qandayligi, biror kutubxona, muzeyga virtual sayohat qilishingiz uchun klaviatura tugmachalarini bosishni o’zi kifoya. Xullas, World Wide Web – butunjahon o’rgimchak to’rining ham ijobiy, ham salbiy hislatlari bor.

Shaxsni jamiyatdan begonalashuvida ikki holat sabab bo’ladi 1) jamiyatdan chekinish; 2) shaxsning marginallashuvi (turmush tarzida yaqqol ajralish), tabiiyki, ijtimoiy hayotdan, iqtisoddan, axloqdan, umuman olganda ijtimoiy sohaning barchasidan



Date: 17th March-2026

rad etilish yuz beradi va o'zining qarashlariga yaqinroq bo'lgan ijtimoiy qatlamni topishga ma'lum bir harakatlar qiladi yoki umuman o'zi ruhiy yo'lg'izlanadi [1, b.134-135].

NATIJALAR (PEZYJBTATY / RESULTS)

Ijtimoiy begonalashuv jamiyatda rad etilishga va tengsizlikka olib keladigan turli omillar va shart-sharoitlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Ijtimoiy begonalashuvning asosiy **sabablaridan** ba'zilar quyidagilar:

Iqtisodiy omillar. Iqtisodiy tengsizlik va qashshoqlikda yashaydigan yoki munosib ish va daromad olish uchun imkoniyati cheklangan odamlar o'zlarini jamiyatdan begona his qilishlari mumkin.

Irqi va etnik kamsitish (diskriminatsiya) ijtimoiy begonalashuvga olib kelishi mumkin. O'z irqi yoki etnik mansubligi tufayli kamsitishlarga duchor bo'lgan odamlar o'zlarini jamiyatdan begonalashtirilgan va tan olinmagan deb his qilishlari mumkin.

Ijtimoiy tengsizlik. Ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va boshqa resurslardan foydalanishdagi tengsizliklar ijtimoiy begonalashuvga olib keladi. Teng imkoniyatlar va resurslarga ega bo'lmagan odamlar o'zlarini begonalashtirilgan, jamoat hayotida ishtirok etishga qobiliyarsiz deb his qilishlari mumkin.

Maqomli begonalashuv ijtimoiy maqomdagi tengsizlik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Past ijtimoiy maqomga yoki mavqega ega bo'lgan yoki muayyan ijtimoiy talablarga javob bermaydigan odamlar o'zlarini jamiyatda begona va tan olinmagan his qilishlari mumkin.

Psixologik omillar. O'zini past baholash, ijtimoiy tashvish va depressiya kabi psixologik muammolardan aziyat chekadigan odamlar ijtimoiy aloqalardan qochishlari va o'zlarini boshqa odamlardan begona his qilishlari mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan sabablar o'zaro ta'sir qilishi va bir-birini kuchaytirishi, alohida shaxslar va butun jamiyat uchun murakkab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularni tushunish bizga ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etish va yanada inklyuzivroq jamiyatni yaratishga qaratilgan strategiya va siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi.

Ijtimoiy begonalashuv alohida shaxslar va butun jamiyat uchun jiddiy **oqibatlariga** olib kelishi mumkin. Masalan, ijtimoiy begonalashuv odamlarda **psixologik muammolari** keltirib chiqarganda, ular o'zlarini yolg'iz, ijobiy xislatlari yetarli bo'lmagan, noraso va tushunib bo'lmaydigan deb his qilishlari mumkin. Bu depressiya, tashvishlanish va o'zini past baholashning rivojlanishiga olib keladi. Ijtimoiy begonalashuvdan aziyat chekadigan odamlar stress va izolyatsiyaning yuqori darajasini ham boshdan kechirishi mumkin.

Jismoniy salomatlikning yomonlashishi. Ijtimoiy begonalashuv odamlarning jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular yurak-qon tomir kasalliklari, bosh og'rig'i va immunitet tizimidagi muammolar kabi turli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan yuqori darajadagi stressni boshdan kechirishlari mumkin. Bundan tashqari, begonalashgan odamlar o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish va sog'lom turmush tarzini tanlashga e'tibor bermasliklari mumkin.



Date: 17th March-2026



Ijtimoiy integratsiyaning yomonlashishi. Ijtimoiy begonalashuv odamlarning jamiyatga ijtimoiy integratsiyalashuviga to'sqinlik qilishi mumkin. Ular boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish va saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelib, bu izolyatsiyaga hamda resurslar va imkoniyatlardan foydalanishning cheklanishiga, hayot sifatining yomonlashishiga, shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy muammolar. Begonalashuvdan aziyat chekayotgan odamlar ish topishda va o'z martabalarida o'sishda qiyinchiliklarga duch kelishlari, ularda resurslar va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lishi, bu esa ularning iqtisodiy ahvolining yomonlashuviga va jamiyatda tengsizliklarining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy begonalashuv hayotning turli sohalarida o'zini namoyon qilishi va odamlarning turli guruhlariga ta'sir qilishi mumkin.

Etnik begonalashuv. Ba'zi jamiyatlarda odamlar etnik mansubligi tufayli begonalashtirilishi mumkin. Ular resurslar va imkoniyatlardan foydalanishda kamsitishga, noto'g'ri qarashlarga va tengsizliklarga duch kelishi mumkin. Masalan, ayrim mamlakatlardan kelgan muhojirlar yoki migrantlar ish topishda yoki ta'lim olishda cheklovlar shaklidagi etnik begonalashuvga duch kelmoqdalar.

Jinsga asoslangan ijtimoiy begonalashuv. Xotin-qizlar jinsiga qarab ijtimoiy begonalashuvga duch kelishi mumkin. Ular ish haqi tengsizligi, rahbarlik lavozimlariga kirishda cheklovlar va ish joyidagi kamsitishlarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, stereotiplar va noto'g'ri qarashlar ayollarning jamiyatda begonalashishiga olib keladi va ularning o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini cheklaydi.

Ijtimoiy tabaqaga asoslangan begonalashuv. Quyi ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar o'zlarining iqtisodiy ahvoli tufayli begonalashtirishga uchrashi mumkin. Ular ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa resurslardan foydalanishda cheklovlarga duch kelishi mumkin, bu esa ularning yashash sharoitlarining yomonlashishiga olib kelishi hamda ijtimoiy mobillik (harakatchanlik) imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Jinsiy (seksual) oriyentatsiyaga asoslangan begonalashuv. LGBT hamjamiyatidagi* odamlar jinsiy oriyentatsiyasi tufayli ijtimoiy begonalashuvga duch kelishi mumkin. Ular kamsitish, zo'ravonlik va jamiyat tomonidan rad etilishga duch kelishi mumkin. Bu esa psixologik muammolarga, ijtimoiy izolyatsiyaga, huquq va erkinliklarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Jismoniy yoki ruhiy xususiyatlarga asoslangan begonalashuv. Jismoniy yoki aqliy (ruhiy) xususiyatlari, nogironligi bo'lgan odamlar sog'lig'i tufayli begonalashtirishga uchrashi mumkin. Ular ta'lim, ish va jamoat joylariga kirish imkoni yo'qligiga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, stereotiplar va noto'g'ri qarashlar ijtimoiy izolyatsiyaga va to'laqonli umr kechirish uchun cheklangan imkoniyatlarga olib kelishi mumkin.

* O'zbekistonda taqiqlangan.

Date: 17th March-2026



Bular zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy begonalashuvning ba'zi bir misollaridir, xolos. Begonalashuv turli shakllarda namoyon bo'lishi va odamlarning turli guruhlariga ta'sir qilishi mumkinligini tushunish muhimdir. Begonalashuvga qarshi kurash har bir inson teng imkoniyatlar va huquqlarga ega bo'lgan yanada inklyuziv va adolatli jamiyatni yaratishni talab qiladi.

Ijtimoiy begonalashuv – bu jiddiy muammo bo'lib, uni **bartaraf etish yo'llariga** quyidagilar kiradi:

Inklyuziv muhitni yaratish. Ijtimoiy begonalashuvni yengishning asosiy usullaridan biri – bu har bir inson o'zini-o'zi qabul qilinganini va hurmat qilinishini his qiladigan inklyuziv muhitni yaratishdir. Bunga bag'rikenglikni, tafovutlarni hurmat qilishni, har bir insonning huquqlari va qadr-qimmatini tan olishni targ'ib qilish orqali erishish mumkin.

Ta'lim va xabardorlik ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Odamlar turli guruhlar va ularning muammolari haqida qanchalik ko'p bilishsa, shunchalik ko'p bir-birlarini tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Ta'lim dasturlari, treninglar va kampaniyalarni o'tkazish xabardorlik va tushunishni oshirishga yordam beradi.

Qo'llab-quvvatlash va empatiya ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishning muhim jihatlaridir. Qo'llab-quvvatlash yoki yordam odamlar muloqot qilishi va o'z muammolarini baham ko'rishi mumkin bo'lgan jamoalar va qo'llab-quvvatlash guruhlarini yaratish orqali ta'minlanishi mumkin. Empatiya, o'z navbatida, o'zimizni boshqalarning o'rniga qo'yish va ularning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini tushunishga imkon beradi.

Stereotiplar va noto'g'ri qarashlarga qarshi kurash. Stereotiplar va noto'g'ri qarashlar bilan faol kurashish muhimdir. Bunga ta'lim, targ'ibot va turli guruhlarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi orqali erishish mumkin.

Siyosiy ishtirok va huquqlarni himoya qilish ham ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi. Odamlar o'z fikrini bildirish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va o'z huquqlarini himoya qila olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak. Bunga siyosiy hayotda faol ishtirok etish, haq-huquqlarni himoyalovchi tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash hamda tegishli qonunlar va siyosatlarini o'tkazishda lobbichilik qilish orqali erishish mumkin.

Bularning barchasi ijtimoiy begonalashuvni yengishning faqat ayrim usullaridir. Har bir inson teng imkoniyatlar va huquqlarga ega bo'lgan yanada inklyuziv va adolatli jamiyatni yaratishga o'z hissasini qo'shishi mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Ijtimoiy begonalashuv – bu odamlarning jamiyatda o'zini rad etilgan, izolyatsiya qilingan yoki yetarlicha mos emasligini his qiladigan jarayondir. U turli sabablarga ko'ra, masalan, irqiy yoki ijtimoiy kamsitish, stigmatizatsiya yoki iqtisodiy tengsizlik tufayli yuzaga kelishi hamda turli darajalarda - individual, guruh yoki hatto butun ijtimoiy sinflar darajasida namoyon bo'lishi mumkin. Bunga irqiy mansubligi, jinsi, yoshi, nogironligi, ijtimoiy mavqei yoki iqtisodiy holati kabi turli omillar sabab bo'la oladi. Begonalashgan

Date: 17th March-2026

odamlar yolg'izlik, nochorlik, o'zini past baholash va tushkunlik tuyg'ularini boshdan kechiradilar. Ular resurslar, xizmatlar va imkoniyatlardan cheklangan tarzda foydalana olishi bois, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli yomonlashishi mumkin.

Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etish uchun har bir inson teng imkoniyatlar va huquqlarga ega bo'lgan inklyuziv jamiyatni yaratish zarur bo'ladi. Bunga ta'lim, xabardorlik, stereotiplar va noto'g'ri qarashlarni o'zgartirish, hamda begonalashtirilgan guruhlarini birlashtirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat va dasturlarni yaratish orqali erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ / REFERENCES:

1. Abduraxmonov Z.M. Begonalashuv muammosi – jamiyatning inqirozi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. | Volume 3 |Issue 12| 2023| B.132-137.
2. Alimasov V. Begonalashuv //Tafakkur . - 2020 -. №2.- B. 29.
3. Бегоналашув ва худбинликни қандай енгамиз? / <https://namdu.uz/ru/post/718>
4. Вильданова Г.Б., Вильданов Х.С., Муслимова Л.Ф. Феномен отчуждения и пути его преодоления // Вестник ЧелГУ. Философия, социология, культурология. – 2007. – № 17. – С.14-20.
5. Даренская В.Н. Процессы отчуждения человека в социогенезе // МОМОТНЕТКА: Философия. Социология. Право. – 2023. – Том 48. - №1. – С. 127-136.
6. Дроздов В.В. Философский анализ структуры отчуждения и «механизма» его функционирования. Автореф. дис. канд. филос. наук. – Магнитогорск, 2004. – 26 с.
7. Исаченко Н.Н. Отчуждение как детерминанта деструктивности современного общества // Вестник ВГУ. Серия: Философия. - 2018. - №01-03. - С.25-31.
8. Клюенков О.И. Феномен отчуждения человека как опыт его существования. Автореф.дис... к.филос.н. - Архангельск, 2007. – 24 с.
9. Ляхова Я. Ю. Социально-философский аспект отчуждения профессиональной деятельности // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Сер.: Гуманитарные и социальные науки. – 2015. – № 1. – С. 67–71.
10. Пахарь Л.И. Отчуждение: современное состояние и перспективы развития общества // Философская мысль. 2021. № 5. С. 46-61.
11. Приходько Д.Н. Отчуждение и пути преодоления. Автореф. дис. докт. филос. наук. - Томск. 1995.- 26 с.
12. Прокофьева Д.В. Отчуждение: сущность, типы, способы преодоления // Вестник Башкирского университета. – 2010. – Т.15.3. – С.751-754.
13. Сафарова М. Бегоналашув тушунчаси ва назарий қарашлар. Бегоналашув тушунчаси ва унинг моҳияти // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. | Volume 2| ISSUE 6| 2021| P.948-960.
14. Смолева Е.О. Социальное отчуждение: анализ теоретических подходов // Вопросы территориального развития. – Вып. 4(34). – 2016. – С.1-14.



Date: 17th March-2026

15. Убайдуллаева Р.А., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва б. Социология. – Т.: ЎАЖБНТ Маркази, 2002. - 292 б.

